

Yashil

IQTISODIYOT
TARAQQIYOT
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4

No 7



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 348 sahifa.

E'lton qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukhanov Sarvar Khan Munavvar Khanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhad, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'irotboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriiddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagи rolini tahlil qilishning zamонавиy yondashuvlari	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni	65
Bayanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni	76
Jusupova Anjim Tansiqaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lif maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va audit bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budgetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферу услуг в регионах Андижанской области	109
Мусабоев Рустам Алихонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish yo'llari	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зохид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Хакимова Нигора Бахтиёрова	122
Investment Management is an Important Factor of Economic Development..... Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	127
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari..... Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	130
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish..... Toyrova Yunus Alakovich	136
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi..... Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	143
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash..... Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	148
Budget tashkilotlarida pul mablag'lari nazarat qilishni rivojlantirish yo'llari..... Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	152
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi..... Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	157
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida muqobil energiya vositalaridan foydalanib ma'lumot almashinish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish masalalari	170
Ashurov Azizbek Ergash o'g'li, Janzakov Bekzot	
Analysis of the theoretical foundations of sustainable economic development at regional level	175
Khudayorova Munira Omonboy kizi	
Soliq ma'murchiligidagi joriy etilgan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni undirish mehanizmini takomillashtirish yo'llari	182
Muxtorov Zokir Sayfulla o'g'li, Karimov Ilhom Anorboy o'g'li, Homidov Asrorbek Tohirjon o'g'li, Axmedova Shoxista G'ayrat qizi	
Sirdaryo viloyatining investitsiya muhiti zamonaviy rivojlanish tendensiyalari	187
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari..... Razzoqov Bexzod Gofurovich	191
Modern trends in assessing the impact of industrial development on the environment..... Turg'unov Jasurbek Alimardon o'g'li	196
Pul oqimlarini guruhlash mezonlari bo'yicha tasniflashni kengaytirish	202
Atamurodov Saidmurod Yaxyoevich	
Iqlim o'zgarishlari va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirining ilmiy-nazariy tahlili	208
Ashrafjon Elov	
Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati	214
Abramatov Eldor Toshmamatovich, Alimov Abduraxon Alxamiddin o'g'li, Shodmonqulov Temurbek Ulug'bek o'g'li, Nurillayev Jasurbek Davronbekovich	
Tijorat banki daromadlari - moliyaviy barqarorlikni omili sifatida..... Umarov Davron Shavkatovich	218
Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	223
Masharipova Manzura Alimbayevna, Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li	
Innovatsion yondashuvlar asosida chakana savdoni rivojlantirish yo'nalishlari..... Saparova Mohira Alisher qizi, Abdullayev Ilyos Sultanovich	227



Experience of foreign countries in youth labor market research	231
Asqarova Muhabbat Ibraximovna	
Xorij mamlakatlarida ijtimoiy tibbiy sug'urta badallari qiymatlarini taqqoslash	235
Umurzakova Mo'tabarxon Nodir qizi	
O'zbekistonda alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarilishi hamda realizatsiya qilinishi tahlili	241
Eshmatov Srojiddin Tog'aymurodovich	
Oliy ta'lif muassasalarini xalqaro tasnifining vujudga kelishi ilg'or tajribalari.....	247
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Анализ зарубежного опыта методологии оценки финансового потенциала развитых стран.....	253
Буранова Лола Вахобовна	

MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONA BARQARORLIGINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Rahimov Mirjalol Sultonboy o'g'li

Ma'mun universiteti NTM "Iqtisodiyot" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Masharipova Manzura Alimbayevna

Ma'mun universiteti NTM "Iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini mazmuni, imkoniyatlari va uni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, korxona barqarorligini samarali boshqarish yuzasidan taklif va tavsiyal keltirilgan.

Kalit so'zlar: Iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, korxona, boshqarish, barqarorlik.

Abstract: This article describes the content, opportunities and specific features of enterprise stability in the context of the digital economy. Also, the author's opinions and recommendations regarding the effective management of the stability of the enterprise are covered.

Key words: Economy, digital economy, enterprise, management, sustainability.

Аннотация: В данной статье описаны содержание, возможности и особенности устойчивости предприятия в условиях цифровой экономики. Также освещены авторские мнения и рекомендации по эффективному управлению устойчивостью предприятия.

Ключевые слова: Экономика, цифровая экономика, предпринимательство, менеджмент, устойчивость.

KIRISH

Ma'lumki, raqamli iqtisodiyotga o'tish va uni amalga oshirish zarurati iqtisodiyotning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish istagi bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalarsiz iqtisodiyot dinamik va samarali rivojlana olmaydi. Shu bois, uning raqamli transformatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi iqtisodiy tizimni o'zgartirishning asosiy unsuridir. Bu borada mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni shakllantirish yuzasidan qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydag'i "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori [1] qabul qilindi. Unga asosan, raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotning barcha jabhalariga kirib borishi ta'minlanadi.

Natijada, korxonalar faoliyati va tuzilmasini tubdan o'zgartirib, raqamli texnologiyalar va infratuzilmalarni yangi qo'shilgan qiymat manbalari va iqtisodiy rivojlanishning yetakchi bo'g'inlariga aylantirmoqda. Iqtisodiyotni raqamli o'zgartirish jarayoni miqdoriy o'zgarishlarning sifatga o'tishining yorqin namunasi sifatida qator yangi texnologiyalarni yaratish va ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bu esa, korxona barqarorligini boshqarishning samarali rivojlanishiga imkon beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarish yuzasidan turli tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, korxonani rivojlantirishning asosiy maqsadi iqtisodiy foydani oshirish bo'lib, uning bozorda o'zini mustahkam o'rnatishi va barqaror o'sishga erishishi mumkin bo'lgan poydevordir [2].



Raqamli iqtisodiy tizimlarda keng qo'llaniladigan an'anaviy raqamli texnologiyalar sifatida katta ma'lumotlar texnologiyalari, bulutli texnologiyalar, neyron tarmoq texnologiyalari, sun'iy intellekt, qo'shimcha va 3D ishlab chiqarish texnologiyalari, kiber-fizik tizimlar, internet, robototexnika, sensorlar majmui, deb talqin qilinadi [3].

Korxonani raqamlashtirish sharoitida boshqarish, birinchi navbatda, ishtirotchilar butun dunyo bo'ylab yangi raqamli biznes jarayonlaridan foydalanish hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni hisobga olgan holda yanada "aqli" va operativ boshqaruv orqali ularning samaradorligini oshirish bilan izohlanadi [4].

Shuningdek, buyumlar interneti, robototexnika, blokcheyn texnologiyalari va virtual reallikka investitsiyalar ortib borayotgani ishlab chiqarishni sanoat jihatdan qayta qurish, transmilliy korxonalarni shakllantirishda asosiy rol o'ynamoqda, bu esa jahon iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [5].

Zamonaviy iqtisodiyotda raqamli sektordagi kompaniyalar birinchi o'ringa chiqadi va iqtisodiyotni raqamli resurs bilan ta'minlaydigan o'sish nuqtalariga aylanishi ta'kidlanadi [6].

Kichik biznesni raqamlashtirish va ilg'or axborot texnologiyalarini joriy etish, uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishi asoslangan [7].

Shuningdek, raqamli iqtisodga xos bo'lgan texnologik o'zgarishlar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlarning biznes uchun yangi bozor qoidalarini yaratishi mumkin, deb qaraladi [8].

Mazkur tadqiqotlar bevosita raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishga qaratilgan yondashuvlarni ifodalaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda korxona barqarorligini boshqarishni tadqiq qilishga qaratilgan tadqiqotning iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, monografik kuzatish, mantiqiy fikrplash, tizimli tahlil, algoritm va abstraklashtirish kabi usullaridan samarali foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsion salohiyatni shakllantirish uchun korxonaning barqarorligini oshirish talab etiladi. Ammo, bu holat doimiy o'zgaruvchan tashqi muhitda noaniqlik sharti bilan amalga oshiriladi. Barqarorlikni samarali amalga oshirish uchun korxona boshqaruv tizimining barcha darajalarini qamrab oluvchi zamonaviy va samarali boshqaruv, shuningdek turli assortimentdagi o'zgarishlar uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talabni monitoring qilish va proqnozlash uchun zamonaviy marketing faoliyati talab qilinadi. Bu faoliyatga zamonaviy axborot texnologiyalari joriy etiladi.

Korxonaning barqarorligini ta'minlash uchun alohida muammo - barqarorlikni buzish tendensiyalarini o'z vaqtida aniqlashdir. Bundan tashqari, ushbu tendensiyalar qanchalik tez aniqlansa, korxona tegishli choralarни ko'rish uchun ko'proq vaqt talab etadi. Shu bois, barqarorlikni ta'minlash uchun korxonada uning holatini tahlil qilishning zamonaviy tizimi bo'lishi kerak. Korxonaning raqamli transformatsiyasi sharoitida katta ma'lumotlar, sun'iy intellekt va boshqalar kabi zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan qator yangi imkoniyatlar zarur bo'ladi. Ushbu tizim korxona salohiyati va uning joriy faoliyatini tahlil qilish hamda barqarorlikni yo'qotishga olib keladigan o'zgarishlarni bashorat qilishi kerak. Bunday tahlil tizimning noaniq va beqaror tashqi muhitda ishlashini ta'minlashda muhim sanaladi. Bularning barchasi ekzo- va endogen omillar ta'siri sharoitida korxonani barqaror ishlashi, rivojlanishi va raqamli transformatsiyasini boshqarish asoslarini ishlab chiqish bo'yicha muammoni hal qilish hamda korxona sohalarini raqamli o'zgartirishga imkon beradi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarishda uning raqamli transformatsiya afzalliklaridan samarali foydalanish lozim. Bu holatda buyumlar interneti, katta ma'lumotlar texnologiyalari, marketing tadqiqotlari uchun sun'iy intellektidan foydalanish va boshqa imkoniyatlar namoyon bo'ladi. Raqamli transformatsiyaning ushbu yo'nalishlari boshqaruv samaradorligiga ijobji ta'sir ko'rsatadi. Bu esa korxona barqarorligini oshirishga imkon beradi. Bu holatda raqamli transformatsiya jarayonida korxona barqarorligiga inson omilining ta'siri yanada murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib hisoblanadi. Mazkur jarayon sharoitida ko'p siklli barqarorlikni boshqarish konsepsiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Bu esa, korxona boshqaruviga tegishli quyidagi konseptual algoritmi xos bo'ladi (1-rasm).

Ushbu 1-rasmga asosan, konseptual algoritm asosida korxonada barqaror boshqaruvni amalga oshirish strategiyasi ishlab chiqiladi. Biroq, korxonada raqamli transformatsiya sharoitida innovatsion rivojlanish strategiyasi turli resurslarni sarflashni talab qiladi. Shu bois, korxonani barqaror boshqarish uchun raqamli transformatsiyaning yuqori texnologiyali mahsulotlarni ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siri mavjud bo'ladi. Raqamli transformatsiya ushbu jarayonlar samaradorligini tezlashtirish va yaxshilash potentsialiga ega bo'lib, resurslar narxini barqarorlikka nisbatan ijobji ta'sirini kamaytirishi mumkin.



Korxona faoliyatining barqarorligini ko‘p sxemali nazorat orqali ta'minlash



Boshqaruvda ekzogen va endogen omillar va parametrlarini monitoring qilish



Barqarorlikni nazorat qilishda tezkor boshqaruv harakatlari yoki strategik qarorlar majmuuni shakllantirish



Ekzogen va endogen omillar va parametrlarning noaniqligi sharoitida korxona barqarorligini saqlash mezonlarini aniqlash



Kompleks tahlil quyisi tizimining ekzogen va endogen omillar va parametrlarini nazorat qilish



Konseptual harakatlar va boshqaruv tsiklini amalga oshirish



O‘z-o‘zini o‘rganish rejimida sun’iy intellekt unsurlaridan foydalanish

1-rasm. Korxonada barqaror boshqaruvni amalga oshirishning konseptual algoritmi

Umuman olganda, korxona faoliyatini barqaror boshqarish uchun raqamli iqtisodiyot texnologiyalarini ishlab chiqish global iqtisodiy tizim o‘zgarishiga ta’sir ko’rsatadi. Xususan, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish, mehnat resurslaridan foydalanish, inson va moddiy kapitalga investitsiyalar oqimiga ta’sir qiladi. Bularning barchasi alohida tadbirdorlik subyektlaridan mamlakatlar va mintaqalargacha ishlab chiqarish samaradorligiga, mehnat unumdarligiga, raqobatbardoshlikka va iqtisodiy o’sishga ta’sir qiladi.

Darhqiqat, raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonani boshqarish barqarorligini oshirish uchun quyidagi usullardan samarali foydalanish joiz, deb hisoblaymiz:

- kuchli moliyaviy asosni tashkil etish. Bu orqali korxonalar qarzni oqilona boshqarish va xarajatlarni tejash imkoniyatlarini faol izlash orqali o‘zlarining moliyaviy barqarorligini yanada kuchaytiradilar. Ushbu usul orqali moliyaviy salomatlikka ustuvor ahamiyat berish korxonalarga noaniqliklarni yengish imkonini beradi va barqaror uzoq muddatli o’sish uchun zamin yaratadi.

- daromad oqimlarini diversifikatsiya qilish. Diversifikasiyalangan daromad oqimlari korxonalarga faqat bitta manbaga tayanib, xavflarni bartaraf etishga imkon beradi. Bu yana ularga o‘z xatarlarini tarqatish va



biznes modelida barqarorlikni yaratishda yordam beradi. Bu orqali korxonalar qaramlikni, bozor tebranishlari yoki sohaga xos muammolar ta'sirini kamaytiradi. Diversifikatsiya o'sish va innovatsiyalar uchun yangi eshilarni ochadi. Bu korxonalarga rivojlanayotgan tendentsiyalardan samarali foydalanish va ilgari foydalanilmagan bozorlarga kirish imkonini beradi.

- mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvga amal qilish. Mijozlarga yo'naltirilgan yondashuvni biznes operatsiyalariga kiritish strategiya bo'lib qaralmaydi. Bu bugungi raqobat sharoitida mijozni har bir qarorning markazida joylashtirish ularning ehtiyojlari va afzalliklarini tan olinishi va samarali hal etilishini ta'minlaydi. Ushbu yondashuv mijozlarning fikr-mulohazalarini faol tinglash, tajribalarni moslashadirish va sifatli xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

- strategik hamkorlikni saqlab qolish. Strategik hamkorlik barqarorlikni yaxshilash va raqobat muhitida rivojlanishga intilayotgan korxonalar uchun zarurdir. Ushbu hamkorlik usuli resurslar, tajriba va imkoniyatlardan unumli foydalanishni ta'minlaydi. Bir-birini to'ldiruvchi korxonalar bilan hamkorlik qilish ularga bir-birlarining kuchli tomonlarini ishga solish va zaif tomonlarini yumshatish imkonini beradi.

- moslashuvchan va tezkor bo'lish. Zamonaviy biznesning moslashuvchanligi va tezkorligi korxonaning omon qolish uchun zarur bo'ladi. Unga asosan, korxonalar doimiy ravishda o'zgarib turadigan bozor sharoitlari, mijozlarning o'zgaruvchan afzalliklari va tez texnologik taraqqiyotga javoban tezda harakat qilishga tayyor bo'lishi kerak. Bunda innovatsiyalar, moslashuvchanlik va uzlusiz o'rganishni rag'batlantiradigan madaniyatni rivojlantirish muhim deb qaraladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxona barqarorligini boshqarish ustuvor yo'nalish bo'lib qaraladi. Chunki barqaror tizim o'zgaruvchan tashqi omillar ta'sirida o'zining asosiy funksiyalari va ularning parametrlarini saqlab turishga qodir bo'lgan tizimdir. Bu borada korxonada barqaror rivojlanish jarayoniga nisbatan zarur asosiy funksiya foyda olish bilan belgilanadi.

Barqaror korxona tashqi muhitdagi noaniqlik va o'zgaruvchanlik sharoitida o'z mahsulotlari raqobatbar-doshligini saqlab qolishi mumkin. Barqarorlik qisqa vaqt ichida raqobatbardoshlik mavjud bo'lmagan sharoitda muvozanat holatini amalga oshirish uchun zaruri shart bo'lib xizmat qiladi. Bu borada korxona barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun barqarorlik salohiyatiga ega bo'lishi lozim. Zamonaviy sharoitda uning faoliyatining barcha sohalarida raqamli transformatsiya amalga oshirishni talab qiladi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalar va uskulalar bilan jihozlangan holatda korxona faoliyatini moslashuvchan o'zgartirish lozim. Bu ishlab chiqarishning tashkiliy va texnologik tuzilmasini xarajatlarsiz o'zgartirish imkonini beradi. Natijada, zamonaviy ishlab chiqarish obyektini yaratish orqali korxonaning barqarorlik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydag'i "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son qarori. Manba: <https://lex.uz/docs/-6472548>.
2. Yanga Sh., He Z., Li X. Enterprise Management Models and Modernization of Enterprise Management. // Proceedings of the 2023 5th International Conference on Economic Management and Cultural Industry (ICEMCI 2023), February 14, 2024.- p. 114.
3. Васин Н.С. Управление устойчивостью предприятия в условиях цифровой экономики. // Экономический анализ: теория и практика, 2018, т.17, вып.6, – с. 1101.
4. Караваева Е.Д. Управление организацией в условиях цифровизации: учебное пособие. – СПб.: Наукомкие технологии, 2020.– с. 62.
5. Головенчик Г.Г. Цифровая экономика [Электронный ресурс]: учеб.-метод. комплекс. – Г.Г. Головенчик. – Минск: БГУ, 2020.– с. 15-16.
6. Askarov N.I. Raqamli iqtisodiyotning ahamiyati va rivojlanish yo'nalishlari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy-elektron jurnali. –№1, yanvar-fevral, 2021-yil.– 289-b.
7. Maxmudova D.R. Raqamli iqtisodiyotda kichik biznes istiqbollari. // Science and innovation international scientific journal, Volume1, Issue6, UIF-2022: 8.2.– 522 b.
8. Rasulova D.V. Raqamli iqtisodiyotga o'tish bugungi kun talabi. // "Raqamli iqtisodiyot: Yangi O'zbekistonni yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari orqali rivojlantirishning yangi bosqichi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami, 26-fevral 2020-yil. – Toshkent: Tadqiqot, 2020.– 114-b.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

